
Ehtiyomand xonadonlarga mevali va manzarali daraxt ko'chatlari tarqatildi

Farg'ona shahrida «Yashil makon» loyihasi doirasida olib borilayotgan ishlarda "Mahalla" xayriya jamoat fondi shahar bo'linmasi xodimlari ham faol ishtirok etishmoqda.

Fond xodimlari mahallalardagi bo'sh yer maydonlari, fuqarolar yig'inlari idoralari hududlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi xonadonlarida daraxt ekish xayriya tashabbusini amalga oshirishmoqda. Hududlarda ariq va suv yo'llarini tozalash, daraxt ko'chatlariga shakl berish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirilyapti.

Shahrimizdagi "Farg'ona" va "Yoshlar" mahalla fuqarolar yig'inlari hududida fond xodimlari ishtirokida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida yuzga yaqin mevali va manzarali daraxtlar o'tkazildi. Hududdagi 10 ta ijtimoiy himoyaga muhtoj, ehtiyomand xonadonlarga 100 tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari tarqatildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-09 16:43:39